Избосаров Бобуржон Бахриддинович Ахмедова Улмасой Хусан кизи СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ БЕДНЫХ СЕМЕЙ К ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВУ	736
Ережепов Кууанышбай Жиенбай улы RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLAR TASNIFI.....	741
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li BYUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI MODERNIZATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	747
Ruziyev Shavkatjon Faxridinovich KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	756
Aymurzaeva Gulnaz Puxarbaevna YER-SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	762
Rustamov Umidjon Xayitboyevich GEOSIYOSIY NOANIQLIK SHAROITIDA TA'MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MODELI	767
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich Sarvinozxon Lutfullayeva Azizxon qizi NEFT-GAZ SANOATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XALQARO TAJRIBASI	775
Mallayev Sirojiddin Eshdavlatovich AGROKLASTERLAR RIVOJLANISHINING INSTITUSIONAL-IQTISODIY NAZARIY MODELI	781
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ CSR В СИСТЕМУ УСТОЙЧИВОГО КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	789
Идиева Наргиза Олимовна Норова Саломат Юсуповна KORXONALARNING INVESTITSIYA FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH: NAZARIYA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI.....	797
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЗАИМОСВЯЗИ БЕРЕЖЛИВОСТИ И ИННОВАЦИЙ.....	803
Аллаберганов Закир Гаирович “YASHIL IQTISODIYOT” BARQAROR RIVOJLANISHNING MUHIM YO'NALISHI SIFATIDA (YEVROPA ITTIFOQI MISOLIDA)	809
Sharifxodjayev Shavkat Oqilovich Achilova Shirin Shavkat qizi DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURSLARDAN	



FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	815
Aipova Iroda Ikramovna	
DON MAHSULOTLARI SANOATIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIKNI UYG'UNLASHTIRISH	820
Aipova Iroda Ikramovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDIGA XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH	826
Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	831
Babjanova Dilfuza Abdurasulovna	
SANOAT KORXONALARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIGA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI.....	836
Xusanova Malohat Mingnorovna	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ И ПРОГРАММАМИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ООО «YANGI ZAMON TUHFASI»	842
Шавкатов Шохаббос Шухрат угли	
O'ZBEKISTON MISOLIDA LOMBARD SEKTORI MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI VA HISOB AMALIYOTI.....	854
Maksud Zaxirov	



O‘ZBEKISTON MISOLIDA LOMBARD SEKTORI MOLIYAVIY KO‘RSATKICHLARI VA HISOB AMALIYOTI

Maksud Zaxirov,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.

E-mail: maxzep28@gmail.com

ORCID: 0009-0003-8049-3895

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda lombard tashkilotlarining 2017-2023-yillardagi moliyaviy faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma’lumotlari asosida aktivlar, sof kreditlar, majburiyatlar va kapital ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tavsifiy statistika, vaqt qatori va korrelyatsiya tahlili usullari qo‘llanildi. Natijalar lombardlar moliyaviy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘shish mavjudligini, biroq ayrim o‘zgaruvchanlik va risklar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning shaffofligi sektor barqarorligida muhim omil ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: lombard, mikromoliya, aktivlar, kreditlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу финансовой деятельности ломбардных организаций в Узбекистане за 2017–2023 годы. В исследовании использованы статистические данные Центрального банка Республики Узбекистан, включая показатели активов, чистых кредитов, обязательств и капитала. Применялись методы описательной статистики, анализа временных рядов и корреляционного анализа. Результаты показали устойчивый рост финансовых показателей ломбардов при наличии определённой волатильности и рисков. Также установлено, что прозрачность бухгалтерского учёта и финансовой отчётности играет ключевую роль в обеспечении стабильности сектора.

Ключевые слова: ломбарды, микрофинансы, активы, кредиты, бухгалтерский учёт, финансовый анализ.

Abstract. This article analyzes the financial performance of pawnshop institutions in Uzbekistan during 2017–2023. The study is based on statistical data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, including assets, net loans, liabilities, and capital indicators. Descriptive statistics, time series analysis, and correlation analysis methods were applied. The results indicate a steady growth trend in the financial indicators of pawnshops, although certain volatility and risks remain. It was also found that the transparency of accounting and financial reporting plays a crucial role in ensuring sector stability.

Keywords: pawnshops, microfinance, assets, loans, accounting, financial analysis.

KIRISH

Lombard tashkilotlari faoliyati 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son¹ “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni asosida tartibga solinadi. Mazkur qonunga muvofiq, banklar tomonidan amalga oshiriladigan ayrim moliyaviy xizmatlarni qonun doirasida bajaruvchi mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, faktoring tashkilotlari va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, shuningdek, kafolat beruvchi tashkilotlar nobank kredit tashkilotlari sifatida tasniflanadi.

Lombardlar jismoniy shaxslarga shaxsiy iste‘mol uchun mo‘ljallangan ko‘char mulkni garov sifatida qabul qilib, ushbu garov evaziga bir yilgacha muddatga qisqa muddatli mikroqarzlar berish huquqiga ega. Bundan tashqari, ular fuqarolardan ko‘char mulkni vaqtincha saqlash xizmatlarini ham ko‘rsatishi mumkin [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dyatlova va Vaskinning ta’kidlashicha, nobank moliya institutlarida buxgalteriya hisobi murakkab tartibga soluvchi talablar hamda maxsus hisob yuritish qoidalari asosida olib boriladi. Bunda moliyaviy operatsiyalarni

1 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2022 yildagi O‘RQ-765-son <https://lex.uz/uz/docs/-5972411?ONDATE=12.02.2025%2000>



to'g'ri aks ettirish, aktivlar va majburiyatlarni aniq tasniflash hamda ishonchli moliyaviy hisobotlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur jarayonlar institutlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Doimiy nazorat va hisobot talablari esa regulyatorlarga tashkilotlar faoliyatini kuzatish hamda ularning qonunchilikka muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi [2].

Bouman va Houtman (1988) o'z tadqiqotlarida lombardlarning norasmiy moliyaviy vosita sifatidagi rolini, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlardagi qishloq moliya tizimlari misolida tahlil qilgan. Ularning ta'kidlashicha, lombardlar rasmiy moliya institutlari yetarli darajada qamrab olmaydigan qishloq aholisiga xizmat ko'rsatishda samarali hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqori xarajatlar va turli cheklovlarga qaramay, lombardlar past operatsion xarajatlari, mahalliy sharoitni yaxshi bilishi hamda keng kirish imkoniyatlari tufayli tashqi subsidiyalarsiz ham faoliyat yurita oladi [3].

Caskey (1991) AQSh tajribasini tahlil qilib, lombardlar asosan past daromadli aholiga kichik hajmdagi garov asosidagi kreditlar berishini ko'rsatadi. Mazkur guruh odatda bank kreditlaridan foydalana olmaydi. Tadqiqotda lombardlar davlat tomonidan tartibga solinishiga qaramay, ayrim hududlarda muhim moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi institut sifatida saqlanib qolayotgani, ularning rivojlanishi esa mintaqaviy farqlarga bog'liqligi ta'kidlanadi [4].

Nazarova (2023) O'zbekiston sharoitida lombardlar faoliyatini o'rganib, ularning huquqiy asoslari hamda moliyaviy tizimdagi o'rnini tahlil qilgan. Tadqiqot lombardlarning milliy iqtisodiyotda muqobil kredit manbai sifatidagi ahamiyatini hamda ularning amaldagi huquqiy muhitga mos ravishda faoliyat yuritishini yoritadi [5].

Amaldagi tartibga ko'ra, lombardlar fuqarolar bilan shartnomalar asosida faoliyat yuritadi hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda xizmat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, lombardlar ko'char mulk garovi evaziga qisqa muddatli mikroqarzar beruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi [6].

Mazkur maqola O'zbekistondagi lombardlarning 2017-2023-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, asosiy indikatorlar hamda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashga qaratilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda lombard tashkilotlarining 2017-2023-yillardagi moliyaviy faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasini baholash va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari asosiy ma'lumot manbai sifatida foydalanildi. Tahlil uchun aktivlar, sof kreditlar, majburiyatlar, jalb qilingan kreditlar, jami kapital hamda ustav kapitali bo'yicha 2017-2023-yillarga oid yillik ma'lumotlar jamlandi.

Metodologiyada tavsiflovchi statistika, vaqt qatori tahlili va korrelyatsiya tahlili usullari qo'llanildi. Tavsiflovchi statistika yordamida o'rtacha qiymat, mediana, minimal va maksimal ko'rsatkichlar hamda standart og'ish hisoblandi. Vaqt qatori tahlili orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning o'sish tendensiyalari o'rganildi, korrelyatsiya tahlili esa asosiy moliyaviy indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan lombardlarda moliyaviy operatsiyalarning balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishi, aktivlar, majburiyatlar va kapitalning aniq tasniflanishi hamda hisobotlarning milliy standartlar va Markaziy bank talablari bilan mosligi tahlil qilindi. Bu yondashuv moliyaviy axborotning ishonchliligi va shaffofligini baholash imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy asosini milliy qonunchilik va buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlar, shuningdek, xalqaro ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Umuman olganda, ushbu yondashuv lombard sektorining moliyaviy holati va buxgalteriya amaliyotlarini kompleks baholashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2022-yil 20-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RB-765-son "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, lombardlar shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzar berish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Lombard tashkilotining ustav kapitali O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida shakllantiriladi va faqat tashkilot muassislari, ishtirokchilari yoki aksiyadorlari tomonidan kiritilgan pul mablag'laridan iborat bo'ladi. Ushbu kapitalni shakllantirish jarayonida kredit mablag'lari, garovga olingan yoki majburiyat yuklangan mablag'lardan, shuningdek, noqonuniy (jinoiy faoliyatdan olingan) mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Lombardlar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 500 million so'm etib belgilangan. Shuningdek, ustav kapitali davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ariza topshirilgunga yoki faoliyat boshlanishi haqida xabarnoma yuborilgunga qadar to'liq shakllantirilishi hamda bank hisobvarag'ida saqlanishi talab etiladi (1-jadval).

Lombard tashkilotining ustav fondi (ustav kapitali)²

Tashkilot turi	Ustav kapitalining eng kam miqdori	Asosiy talablar
Lombard	500 million so'm	Faoliyat boshlashdan oldin ustav kapitali to'liq shakllantirilishi shart

Lombard tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, ichki audit va auditorlik tekshiruvlariga to'xtaladigan bo'lsak, nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi amaldagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya etilgan holda tashkil etilishi va yuritilishi lozim. Ushbu tashkilotlar moliyaviy hamda nazoratga oid hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq ravishda o'z vaqtida taqdim etishi shart bo'lib, taqdim etilgan hisobotlarning to'liqligi va ishonchliligi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Mazkur talablar moliyaviy axborotning shaffofligini ta'minlash hamda regulyativ nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ichki audit xizmati tashkil etilishi majburiy hisoblanadi. Ushbu talab aktivlari belgilangan chegaradan yuqori bo'lgan mikromoliya va faktoring tashkilotlari, lombardlar, ipotekani qayta moliyalashtirish hamda kafolat beruvchi tashkilotlarga tatbiq etiladi. Ichki audit xizmati tashkiliy jihatdan mustaqil bo'lib, bevosita kuzatuv kengashiga hisobdor hisoblanadi.

Ichki auditning asosiy vazifasi ijro etuvchi organlar hamda filiallar faoliyatining qonunchilik hujjatlari, ta'sis hujjatlari va ichki me'yoriy talablariga muvofiqqligini baholashdan iborat. Shuningdek, u buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishini tekshiradi, aktivlarning saqlanish holatini nazorat qiladi hamda tashkilotning umumiy moliyaviy boshqaruv tizimini monitoring qiladi.

Bundan tashqari, nobank kredit tashkilotlarining yillik moliyaviy hisobotlari majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi lozim. Markaziy bank talablari asosida ushbu tekshiruv tashkilot faoliyatining umumiy holatini yoki alohida yo'nalishlarini qamrab olishi mumkin. Auditorlik jarayoni moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash hamda tashqi manfaatdor tomonlar uchun xolis axborot taqdim etishni ta'minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, tashkilotlar yillik moliyaviy hisobotni auditorlik xulosasi bilan birgalikda ishtirokchilar yoki aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishidan kamida ikki hafta oldin oshkor etishi shart. Mazkur talab korporativ shaffoflikni kuchaytirish va investorlar ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lombardlar o'z faoliyat yo'nalishiga muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga belgilangan shakllarda moliyaviy va nazoratga oid hisobotlarni, shuningdek, ularning elektron ma'lumotlarini taqdim etishi shart. Ushbu hisobotlar tashkilotlarning moliyaviy holati va operatsion faoliyatini kompleks baholash imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Xususan, taqdim etiladigan hisobotlar tarkibiga buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot kiradi. Shuningdek, kapital tarkibidagi o'zgarishlar, berilgan kreditlar va lizing xizmatlari, faktoring operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar portfeli hamda investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham taqdim etiladi.

Bundan tashqari, jalb qilingan mablag'lar, berilgan kafolat va kafilliklar, shuningdek, muqobil moliyalashtirish xizmatlari, jumladan, nasiya savdo (murobaha), islomiy ijara (ijara), oldindan to'lov asosidagi moliyalashtirish (salam), hamda foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish (muzoraba va mushoraka) bo'yicha ma'lumotlar ham hisobot tarkibiga kiritiladi.

Hisobot tizimi, shuningdek, aktivlar va majburiyatlar tahlili, aloqador shaxslar bilan tuzilgan bitimlar, yirik tavakkalchiliklar hamda prudensial normativlarga rioya etish holati to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur keng qamrovli hisobotlar to'plami moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni baholash hamda regulyativ nazoratni kuchaytirish uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi [8].

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan lombardlarning 2017-2023-yillardagi moliyaviy ma'lumotlari tahlili natijalari quyida tavsifiy statistika va korrelyatsion tahlil asosida keltiriladi. So'ngra ushbu natijalar munozara qismida ko'rib chiqiladi (2-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasining O'RQ-765-son "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil 20-aprel. <https://lex.uz/uz/docs/-5972411?ONDATE=12.02.2025%2000>



2-jadval
O'zbekistondagi lombardlarning moliyaviy ko'rsatkichlari³

Yil	Aktivlar	Kreditlar (sof)	Majburiyatlar	Olingan kreditlar	Jami kapital	Ustav kapitali
2017	80	65	9	1	71	19
2018	109	86	10	2	99	39
2019	130	105	10	4	120	47
2020	146	126	18	11	128	52
2021	209	176	21	13	188	68
2022	260	215	30	21	230	75
2023	336	280	41	28	295	90

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra:

- Aktivlar 2017-yildagi 80 million so'mdan 2023-yilda 336 million so'mgacha sezilarli darajada oshgan;
- Shu davrda sof kreditlar hajmi 65 million so'mdan 280 million so'mgacha o'sgan;
- Majburiyatlar 9 million so'mdan 41 million so'mga ko'tarilgan;
- Olingan kreditlar 1 million so'mdan 28 million so'mga ko'paygan;
- Jami kapital 71 million so'mdan 295 million so'mgacha oshgan;
- Ustav kapitali 19 million so'mdan 90 million so'mgacha o'sgan.

Mazkur natijalar O'zbekistonda lombardlar faoliyatining barqaror o'sib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, aktivlar, sof kreditlar va jami kapital yuqori sur'atlarda oshib bormoqda. Shu bilan birga, majburiyatlar, ustav kapitali va olingan kreditlar kabi boshqa ko'rsatkichlar ham mos ravishda ijobiy dinamikani namoyon etmoqda (3-jadval).

3-jadval
O'zbekistonda lombard tashkilotlarining moliyaviy ko'rsatkichlari
bo'yicha tavsifiy statistika (2017-2023-yillar)⁴

Statistika	Aktivlar	Kreditlar (sof)	Majburiyatlar	Olingan kreditlar	Jami kapital	Ustav kapitali
O'rtacha qiymat	181,43	150,43	19,86	11,43	161,57	55,71
Mediana	146,00	126,00	18,00	11,00	128,00	52,00
Standart og'ish	91,52	77,16	12,02	10,18	79,75	23,86
Minimal	80	65	9	1	71	19
Maksimal	336	280	41	28	295	90

O'tgan davr mobaynida aktivlarning o'rtacha qiymati 181,43 million so'mni, sof kreditlar esa o'rtacha 150,43 million so'mni tashkil etdi. Standart og'ish ko'rsatkichlari moliyaviy indikatorlarda sezilarli o'zgaruvchanlik mavjudligini ko'rsatadi, ayniqsa kreditlar bo'yicha.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda lombard tashkilotlari faoliyatining 2017-2023-yillar davomida barqaror va izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, aktivlar, sof kreditlar va jami kapital ko'rsatkichlarining sezilarli oshishi sektorning kengayib borayotganini hamda aholi orasida lombard xizmatlariga bo'lgan talab ortayotganini tasdiqlaydi. Aktivlarning 80 million so'mdan 336 million so'mgacha oshishi lombardlarning moliyaviy salohiyati mustahkamlanayotganini anglatadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan lombardlarda moliyaviy operatsiyalarning to'g'ri aks ettirilishi, aktivlar, majburiyatlar hamda kapitalning aniq tasniflanishi moliyaviy natijalarning ishonchligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hisobotlarning Markaziy bank talablari asosida yuritilishi moliyaviy shaffoflikni oshiradi hamda sektor

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni. https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/?arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3666&year=2026&month=02&set_filter=&set_filter=Y

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.



ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ichki audit va majburiy tashqi audit jarayonlari moliyaviy intizomni kuchaytirib, risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, natijalar lombard sektorining O'zbekiston moliya tizimida muhim o'rin egallayotganini, uning barqaror o'sishi esa huquqiy tartibga solish, buxgalteriya hisobi sifati hamda bozor talabining oshishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda lombard tashkilotlarining 2017-2023-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali ularning rivojlanish tendensiyalari hamda moliyaviy holatini baholashga qaratildi. Olingan natijalar lombardlar aktivlari, sof kreditlari va kapitali barqaror ravishda o'sib borayotganini ko'rsatdi, bu esa sektorning kengayib borayotganini hamda moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab ortayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, majburiyatlar va jalb qilingan kreditlar hajmining oshishi lombardlar faoliyatida moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi. Tavsifiy statistika natijalari ayrim moliyaviy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgaruvchanlik mavjudligini aniqladi, bu esa sektorning risk darajasi nisbatan yuqoriligini bildiradi.

Buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi tahlili lombardlarda moliyaviy ma'lumotlarning to'g'ri aks ettirilishi, qat'iy tartibga solish talablari hamda majburiy audit jarayonlari moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida investorlar va regulyatorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, lombard sektori O'zbekiston moliya tizimida muhim o'rin egallab, aholiga tezkor va garov asosidagi moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda muqobil kredit manbai sifatida faoliyat yuritmoqda. Kelgusida ushbu sohada risklarni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda buxgalteriya hisobi shaffofligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-765-son "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 2022-yil 20-aprel. <https://lex.uz/uz/docs/-5972411?ONDATE=12.02.2025%2000>
2. Dyatlova, A. F., & Vaskin, F. I. (n.d.). Regulatory and methodological aspects of accounting in non-bank financial institutions. *Scientific Notes of the Russian Academy of Entrepreneurship*, issue 49.
3. Bouman, F., & Houtman, R. (1988). Pawnbroking as an instrument of rural banking in the Third World.
4. Caskey, J. (1991). Pawnbroking in America: The economics of a forgotten credit market.
5. Nazarova, M. (2023). Lombardlar faoliyatining zamonaviy holati tahlili.
6. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 2022-yil 20-aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2017–2023). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 15-sentabrdagi 21/4-son qarori, ro'yxat raqami 3412-1). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2025-yil 20-oktabr, 10/25/3412-1/0952-son. Kuchga kirish sanasi: 2026-yil 21-yanvar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>